

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 328 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalarini marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'iroqboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari.....	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi.....	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni.....	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi.....	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli.....	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области.....	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida.....)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish yo'llari.....	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Муҳлисахон Ибраҳимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Ҳақимова Нигора Бахтиёрвна	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
Toyirov Yunus Alamovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
Razzoqov Bexzod Gofurovich	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida.....	218
Umarov Davron Shavkatovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari.....	227
Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	



Experience of foreign countries in youth labor market research	231
Asqarova Muhabbat Ibraximovna	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash	235
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili	241
Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari	247
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
Буранова Лола Вахобовна	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish.....	263
Abdurahmanov Otabek Patidinovich	
“To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar”	270
Otaxanova Umida Olim qizi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari.....	275
Sayfulina Alfira Feratovna	
Oliy va xususiy ta'lim muassasalarida ta'lim menejmentini qo'llash hamda alohida mexanizmlarining tahlili.....	281
Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarishning nazariy asoslari	287
Yuldoshev Ulug'bek Asqar o'g'li	
Asosiy vositalarga oid BHXS va MHXSlar maqsadi va amaliyotda qo'llanilishi.....	293
Nematova Dilnoza Azamatovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va omillari.....	297
S.M.Xolxo'jayev	
The implementation of eco-tourism in supporting the optimality of tourism sector (case study in Indonesia and Uzbekistan)	302
Khalimova Mohirabonu, Alfira Sofia, Diana Igorevna Stepanova	
Innovations in export logistics for Uzbekistan's produce.....	310
Sevinch Makhmutullaeva	
Tijorat banklarida ichki audit faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati	314
Yo'ldashov Adham Tavboyevich	
Налоги и их роль в доходах бюджета Республики Узбекистан.....	319
Умида Юлдашева	
Tijorat banklarining daromad manbalarini raqamli texnologiyalar orqali kengaytirish yo'llari.....	323
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	



TIJORAT BANKLARINING DAROMAD MANBALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI KENGAYTIRISH YO‘LLARI

Ahmedov Komron Muhammadaliyevich
“Asakabank” AJ Bank ijro apparati tarkibidagi
Ekspert-tahlil guruhi Eksperti



Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari faoliyati va tajribasi o‘rganilib, milliy tijorat banklarimiz tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston tijorat banklari daromad manbalarini raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kengaytirish imkoniyatlari yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, daromad manbalari, bank xizmatlari, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, internet-banking, mobil-banking, onlayn-banking.

Abstract: This article examines the activities and experience of commercial banks in developed countries today, and also shows the prospects for the use of information technology when introducing digital technologies into the system of our national commercial banks. At the same time, practical proposals and recommendations are presented regarding the possibilities of expanding the sources of income of commercial banks of Uzbekistan through the introduction of digital technologies.

Key words: commercial banking, sources of income, banking services, information technologies, digital technologies, internet banking, mobile banking, online banking.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность и опыт коммерческих банков развитых стран сегодня, а также показаны перспективы использования информационных технологий при внедрении цифровых технологий в систему наших национальных коммерческих банков. При этом представлены практические предложения и рекомендации относительно возможностей расширения источников доходов коммерческих банков Узбекистана за счет внедрения цифровых технологий.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, источники дохода, банковские услуги, информационные технологии, цифровые технологии, интернет-банкинг, мобильный банкинг, онлайн-банкинг.

KIRISH

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan bir vaqtda banklar faoliyatining samaradorligini sezilarli oshirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat yuqori bo‘lgan sharoitda banklarda yangi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, bank xizmatlarini yuqori sifatli va tez ko‘rsatishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Tijorat banklarining raqamli faoliyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish to‘g‘risidagi xorij tajribalarini o‘rgangan holda milliy tijorat banklarimiz amaliyotida axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonidagi mavjud kamchiliklarimizga alohida e‘tibor qaratib, ularni takomillashtirish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, qonunchiligimizdagi mavjud normativ-huquqiy xujjatlar bilan tartibga solinishi hamda axborot xavfsizligi ta‘lablariga to‘liq rioya etilishi yuzasidan nazoratni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarida ko‘rsatilayotgan xizmat turlari va sifati ortishiga qaramasdan mijozlar tomonidan qo‘yilayotgan navbatdagi ta‘lablar naqadar asosli ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



Davlat rahbari Sh. Mirziyoyev bank tizimi haqida fikr yuritib: “Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda”, – deb ta'kidladilar. Tijorat banklari amalga oshirishi lozim bo'lgan raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish muhim masala sifatida e'tirof etilmoqda. Ko'plab banklarda bank xizmatlariga mustaqil narx belgilash xususiyatlari raqobatchilarga qarshi narxlarning to'liq kurashishiga yo'l qo'ymaydi. Shu munosabat bilan banklarda mijozlarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu yangi bank texnologiyalari, mahsulotlari va xizmat turlarini rivojlantirish asosida faoliyatini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston banklari rivojlanishining hozirgi bosqichida naqd pulsiz to'lovlarga xizmat ko'rsatuvchi plastik kartochkalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar, shuningdek, bank hisobini masofadan boshqarish, bank mijozlarning yangi aloqa vositalaridan foydalanishida ko'nikma xosil qilish, pul aylanmasining o'sishi va aholining tijorat banklari borasida qondiriladigan boshqa talablari keng ko'lamda o'z yechimini topmoqda. Bunday sharoitda raqamli salohiyatni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishga asoslangan strategik rivojlanish dasturlari, jumladan, yangi bank texnologiyalari, mahsulotlar va xizmat turlarini ishlab chiqish hal qiluvchi omil bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlashga chaqirdi. Fikrimizcha, ushbu dasturlarni amalga oshirish bank boshqaruvining mavjud xususiyatlari, resurs bazasi balansi va potensial xaridor ehtiyojlarini qondirish hamda bank salohiyatini hisobga olgan holda tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O.I. Lavrushinning fikricha, banklar iqtisodiyotning o'ziga xos “qon tomiri” bo'lib, ularsiz zamonaviy xo'jalik mexanizmini tasavvur qilish mumkin emas. Bu tizimda turli xo'jalik subyektlari, davlat korxonalari, chet el investorlarining pul resurslari muomalada bo'ladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan S.S. G'ulomov, I.I. Alimov, A. Xusanboyev va O.Yu. Rashidov o'z tadqiqotlarida banklarning faoliyati, ularda kredit berish tartibi, uning faoliyatini takomillashtirish borasida ish olib borganlar. D. Ismailov o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalash usullarini riskni kamaytirish orqali yanada takomillashtirish borasida “ilmiy yangilik va kashfiyotlarga asoslangan yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish, odatda, yuqori darajadagi risklarga ega bo'lganligi sababli, shuningdek, respublikamizda venchurli moliyalashga talab yuqori bo'lib, ushbu riskli investitsiyalash usuli rivojlanmaganligi tufayli mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun xorijiy venchur fondlarini faol jalb etish zarur” ekanligini ta'kidlaydi.

Hozirgi iqtisodiy bilimlar shakllanayotgan sharoitlardagi raqamli texnologiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi asosiy omil sanaladi. Bundan esa shunday xulosa chiqarish mumkinki, hududdagi raqamli faoliyat qanchalar faol va jadal bo'lsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi ham shunchalar yuqori bo'ladi. Raqamli texnologiyalar o'zgarishlarni qo'llabquvvatlamay va amalga oshirmay, ushbu vazifani, ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolda ta'minlab berish juda murakkabligi barchaga ma'lum.


Raqamli texnologiyalar faoliyatini barcha pog'onalarda rag'batlantirish yuzasidan choratadbirlar ishlab chiqish zaruratini alohida ta'kidlash joiz, aynan mana shundagina raqamli faoliyat sohasida muayyan natijalarga erishish mumkin. X. Roziqovanning ta'kidlashicha, “Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarning yaratilishi texnologik bazani modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini tubdan oshirish imkonini beradi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kuzatuvlarimiz asosida respublikamiz tijorat banklarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish orqali raqamli bank xizmat turlarini yaratish va samaradorlikni oshirish, shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo'llash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda aholi tijorat banklari tomonidan mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, budget, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisob varaqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda (1-rasm). Ushbu rasm orqali yildan-yilga masofaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi va fuqarolarimizda interaktiv bank xizmatlariga bo'lgan ishonchning toboro ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (turlari bo'yicha) 2023-yil holatiga.¹

Tijorat banklari raqamli texnologiyalarni joriy qilishi natijasida mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini ko'paytirishi, ayniqsa, chakana operatsiyalarini rivojlantirishi bilan o'z faoliyatini diversifikatsiya qila boradilar. Chunki banklarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi yangi bank mahsulotlari paydo bo'lishining asosiy omili hisoblanadi.

Masofaviy bank xizmatlari an'naviy usullarga nisbatan xizmat ko'rsatish sifatining oshishi, raqamli banking va raqamli bankni keng joriy etish yangi bank mahsulotlarini yaratish va filiallar ochish bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish kabi ustunliklarga ega.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar kesimida kursatilayotgan masofaviy bank xizmatlarini quyidagi jadval asosida kurishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2023 yil holatiga.²

№	Bank	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	62 280	1 211 092	1 273 372
2	O'zsanoatqurilishbanki	41 353	1 875 494	1 916 847
3	Agrobank	116 871	2 421 695	2 538 566
4	Ipoteka-bank	118 867	1 346 896	1 465 763
5	Mikrokreditbank	64 139	884 654	948 793
6	Xalq banki	86 153	2 337 508	2 423 661
7	Savdogar bank	9 453	69 354	78 807

1 Manba: <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma'lumotlari.

2 Manba: <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma'lumotlari.



8	Qishloq qurilish bank	21 565	296 224	317 789
9	Turonbank	23 271	204 874	228 145
10	Hamkorbank	83 431	968 972	1 052 403
11	Asaka bank	29 333	781 382	810 715
12	Ipak Yo'li banki	26 096	593 900	619 996
13	Ziraat bank Uzbekistan	1 776	19 998	21 774
14	Trastbank	26 858	125 591	152 449
15	Aloqabank	17 518	430 367	447 885
16	KDB Bank O'zbekiston	600	37 355	37 955
17	Turkistonbank	3 517	11 704	15 221
18	Soderot bank Toshkent	167	1 312	1 479
19	Universal bank	5 914	80 020	85 934
20	Kapitalbank	27 656	216 008	243 664
21	Ravnaqbank	1 989	22 168	24 157
22	Davr-bank	20 154	64 397	84 551
23	Invest Finance bank	20 852	302 409	323 261
24	Asia Alliance bank	12 482	188 439	200 921
25	Hi-Tech bank	1 570	21 429	22 999
26	Oriyent Finans bank	18 750	250 374	269 124
27	Madad Invest bank	748	2 281	3 029
28	O'zagroeksportbank	110	1 242	1 352
29	Poytaxt bank	783	3 993	4 776
30	Tenge bank	325	2 854	3 179
31	TBC bank	0	22 443	22 443
Jami		844 581	14 796 429	15 641 010

Raqamli banking tushunchasini to'liq anglash uchun mijoz-bank, bank mijoz, internet banking, elektron banking, "online banking", "remote banking", "direct banking", "home banking", "PC banking", telefon banking, mobil banking, "WAP banking", SMS banking, "GSM banking" va "TV banking" kabi tushunchalarni anglab olish kerak bo'ladi.

Tan olish lozimki, mamlakatimiz bank-moliya tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish uchun islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini qabul qilinishi bank sohasini rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mazkur strategiyada davlat banklari kengashiga mustaqil a'zolarni kiritish, qator banklar faoliyatini xalqaro tashkilot, kompaniya va ekspertlarni jalb qilgan holda diagnostika qilish, banklar ustav kapitalidagi davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib borish kabi aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan. Shuningdek, bank xodimlari faoliyati samaradorligi KPI tizimini joriy qilish, loyihalar fabrikasi konsepsiyalarini ishlab chiqish, bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini yanada kuchaytirish maqsadida Fin-Tech kompaniyalar faoliyatini yo'lga qo'yish, korporativ boshqaruvning xalqaro tajribasini o'rgangan holda funksional tizimini yaratish bo'yicha zamon talabi darajasidagi chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Ayonki, jahon bank-moliya tizimining jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgani banklar faoliyatida yangi texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Shu bois bugungi kunda tijorat banklari tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilgan holda tezkor, sifatli hamda ishonchli xizmatlar ko'rsatilyapti. Natijada, an'anaviy bank xizmatlari o'rnini masofaviy xizmatning turli ko'rinishlari egallayapti. Jumladan, "Bank-mijoz", "SMS-banking", "Mobil-banking" tizimli tarmoqlari bank hisob-varaqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida mobil va elektron aloqa vositalari orqali olish imkonini berayotir. Pirovardida 2015 yilda ushbu xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar soni avvalgi yildagiga nisbatan 2 martadan ko'proq oshib, 1 million 125 mingtani tashkil qildi. Bank plastik kartochkalari orqali naqd-pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanishi esa bunday xizmatlarning 4,9 marotaba ortishiga mustahkam zamin yaratdi.

Naqd-pulsiz hisob-kitoblar tizimining kundan kunga rivojlanishi axolining shu soxaga bo'lgan ehtiyojlarining ortayotganligidan dalolat beradi. Respublika tijorat banklari ichida birinchilardan bo'lib xalqaro kobeydj kartalarini muomalaga kiritgan AT "Aloqabank"ning shu soxadagi xizmatlari aloxida axamiyat kasb etadi. Kobeydj

karta bank emitent tomonidan emissiya qilingan UzCard / UnionPay va UzCard / MIR to'lov tizimlarining infrastrukturasiidan foydalanib, bank kartasi egasiga undagi mablag'lar doirasida bank hisobvarag'i orqali naqd pulsiz hisob kitoblarni amalga oshirish va hisobvarag'dan naqd pul olish imkonini beruvchi xalqaro to'lov vositasi xisoblanadi. Shu yilning dastlabki ikki oyida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlarni banklar kesimida olganimizda eng yuqori ko'rsatkich AT "Aloqabank" xissasiga to'g'ri kelganligi, shu bilan birga, mazkur tijorat banki raqamli texnologiyalardan foydalanib zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish va masofaviy bank xizmatlar sohasida nafaqat yurtimizda, balki MDH va xorijiy banklar o'rtasida alohida o'ringa ega bo'lib, halqaro reytinglarda ham yuqori natijalarga erishgan yirik banklardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz tijorat banklarida axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda raqamli faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi takliflar va chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Zamonaviy interaktiv bank xizmatlari (depozit, kredit, valyuta, trast va boshq.) va ularning sonini kengaytirish hamda axborot texnologiyalaridan va mobil texnologiyalardan samarali foydalanish uchun yangi dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlash, ixtisoslashgan idoraviy elektron bazalarni shakllantirish va boyitish;

- "Bank-mijoz" etika kodeksini joriy etish hamda "Ma'lumotlar va mablag'lar xavfsizligi siyosati", "Mijozga moslashish siyosati", "Bank mahsuloti jozibadorligi" kabi tizimlarning faoliyatini ta'minlash;

- Mijozlar hisob raqamlarining dahlsizligini ta'minlash maqsadida mijozlardan kriptografik ma'lumotlari bazalarini yaratish;

- Banklar o'z daromadlarining ma'lum qismini innovatsiyalar va ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishi lozim;

- Bank xodimlarining axborot texnologiyalari soxasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish maqsadida doimiy ravishda o'quv seminarlari va treninglar tashkil etish;

- Elektron raqamli imzo bo'yicha qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, uning xavfsizligini yanada oshirish maqsadida zamonaviy operatsion tizim, internet brauzer va antivirus dasturlaridan keng foydalanish;

- Tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab internet tarmog'i tezligini imkon qadar oshirish choralari ko'rish;

- Axoli orasida banklar faoliyati va zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish.

Banklar va bank faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, yangi bank mahsulotlarini yaratish orqali tijorat banklarimizning rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

F oydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Farmon (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
2. Murojaatnoma (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2020-yil 25-yanvar. 3-son. 3 b.
3. Benfratello L., Schiantarelli F. & Sembenelli A. (2008). Banks and innovation: Microeconomic evidence on Italian firms. *Journal of Financial Economics*, 90(2), 197-217.
4. Mahavir J. (2018) Trend Report: "Mobile App Development in 2018".
5. Pousttchi K., Schurig M. (2004), "Assessment of today's mobile banking applications from the view of customer requirement", *Proceedings of the Hawaii International Conference on System Sciences*, Big Island, Hawaii, 5-8 January, available at: <http://csdl1.computer.org/comp/proceedings/hicss/2004/2056/07/20560184a.pdf> (accessed 16 February 2006).
6. Rahimova X.U. (2016). Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: Moliya. 243 b.
7. Susannah F. (2013) "51% of U.S. Adults Bank Online", PewResearch Internet Project <http://www.pewinternet.org>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

